

**Sharopov Temirmalik Rustam o'g'li
Qarshi xalqaro universiteti assistant o'qituvchisi
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti**

**YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING MAHALLIY IQTISODOYGA
TA'SIRI**

Annotatsiya

Ushbu maqola yashil iqtisodiyotga o'tish va uning mahalliy iqtisodiyotga ta'sirini o'rganadi, barqaror iqtisodiy amaliyotlarga o'tish bilan bog'liq imkoniyatlar va qiyinchiliklarga e'tibor qaratadi. Maqolada yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlik, hamda iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlikni saqlash orqali boshqarishda innovatsiyalarning roli muhokama qilinadi. Shuningdek, maqola Germaniyaning qayta tiklanadigan energiyaga o'tishi va O'zbekistonning yashil iqtisodiyot strategiyalarini amalga oshirishdagi tajribalarini keltiradi. Maqolada, shuningdek, yashil iqtisodiyot tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda duch kelinayotgan texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy to'siqlar ko'rib chiqiladi. Xulosa sifatida, maqola yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydigan va ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydigan yondashuvlar zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik iqtisodiyot, mahalliy iqtisodiyot, qayta tiklanadigan energiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, innovatsiyalar va texnologiyalar, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar.

**Sharopov Temirmalik Rustam o'g'li
Karshi international university assistant teacher
Karshi state university PhD student**

**THE IMPACT OF THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY ON
THE LOCAL ECONOMY**

Annotation

This article examines the transition to a green economy and its impact on the local economy, focusing on the opportunities and challenges associated with the shift towards sustainable economic practices. The paper discusses the key principles of green economy, the relationship between sustainable development and green economy, and the role of innovation in driving economic growth while maintaining environmental balance. The article also highlights global and local case studies, such as Germany's transition to renewable energy and Uzbekistan's efforts to implement green economy strategies. Additionally, the paper identifies the main challenges that hinder the successful implementation of green economy practices, including technological, economic, and social barriers. The conclusion emphasizes the importance of integrated approaches, government support, and public awareness in fostering a green economy that supports sustainable development and social well-being.

Key Words: Green economy, sustainable development, ecological economics, local economy, renewable energy, environmental protection, innovations and technologies, socio-economic changes.

Kirish

Bugungi kunda dunyo miqyosida ekologik muammolar va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash zaruriyati global kun tartibida muhim masalaga aylangan. Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham yashil iqtisodiyotga o'tish milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim omili sifatida ko'rilmoxda. Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari atrof-muhitni himoya qilish, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy o'sish bilan ekologik muvozanatni ta'minlashni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv nafaqat ekologik barqarorlikni oshiradi, balki mahalliy iqtisodiyotda yangi imkoniyatlarni yaratish, aholining farovonligini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Mahalliy iqtisodiyotda yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlari chuqr tahlilni talab qiladi. Yashil texnologiyalarni joriy

qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash kabi chora-tadbirlar, bir tomonidan, ekologik xavfsizlikni oshirsa, boshqa tomonidan, yangi ish o'rinlarini yaratadi va iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiyalash imkonini beradi. Ammo bu jarayon qator qiyinchiliklar bilan ham bog'liq, masalan, moliyaviy cheklovlar, texnologik imkoniyatlarning yetarli emasligi va aholi o'rtasida ushbu yangiliklarni qabul qilishdagi qarshiliklar.

Mazkur maqola yashil iqtisodiyotga o'tishning mahalliy iqtisodiyotga ta'sirini o'rganishga bag'ishlanadi. Unda, birinchi navbatda, yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritib beriladi. Keyinchalik, mahalliy iqtisodiyotda yuzaga keladigan imkoniyatlar va muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish tajribasi va ushbu yo'nalishdagi strategik qarorlar amaliy misollar asosida tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – yashil iqtisodiyotga o'tishning mahalliy iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sirlarini aniqlash va ushbu yo'nalishda rivojlanish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Adabiyotlar tahlili.

Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rganish ko'plab ilmiy ishlar va xalqaro hisobotlarning diqqat markazida bo'lgan. Pearce, Markandya va Barbier (1989) tomonidan taqdim etilgan *Blueprint for a Green Economy* asari yashil iqtisodiyotning asosiy prinsiplari, xususan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik innovatsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga qo'shadigan hissasini tahlil qilgan. Barqaror rivojlanishning nazariy asoslari esa BMTning Bruntlend hisobotida (1987) yoritilgan bo'lib, unda hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirgan holda kelajak avlodlar uchun imkoniyatlarni saqlab qolish tamoyili muhim deb e'tirof etilgan. Yashil iqtisodiyotning xalqaro tajribasiga to'xtalsak, UNEP (2011) hisobotida ushbu modelning kambag'allikni kamaytirish va ekologik muvozanatni ta'minlashdagi o'rni bat afsil bayon etilgan. Shu bilan birga, OECD (2013) yashil iqtisodiyotning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini va yashil texnologiyalarning

rolini tahlil qilgan. O‘zbekiston misolida, "Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi" (2020) mamlakatda energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ushbu yondashuv mahalliy iqtisodiyotning ekologik va ijtimoiy jihatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Nazarova va Saidov (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mahalliy sharoitda yashil iqtisodiyotga o‘tishda duch kelinayotgan qiyinchiliklar va imkoniyatlar o‘rganilgan. Shuningdek, Schaltegger va Wagner (2017) yashil iqtisodiyotning texnologik innovatsiyalar va barqaror tadbirdorlik bilan bog‘liqligini o‘rganib, ekologik innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorlikka bo‘lgan ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan. Ushbu tadqiqotlar xulosasiga ko‘ra, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlaydi, balki ijtimoiyadolat va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazariy asoslari

Yashil iqtisodiyot nazariyasi barqaror rivojlanish konsepsiyasining amaliy ifodasi bo‘lib, u iqtisodiy o‘sish jarayonida ekologik muvozanatni saqlashni assosiy tamoyil sifatida belgilaydi. Ushbu nazariya tabiat resurslaridan oqilona foydalanishni, chiqindilarni kamaytirishni va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tishni targ‘ib qiladi. Pearce, Markandya va Barbier (1989) tomonidan ishlab chiqilgan "yashil iqtisodiyot" tushunchasi resurslarni tejash va ekologik zararlarni minimallashtirish orqali iqtisodiy faoliyatni barqaror qilishni nazarda tutadi. Shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish bo‘yicha Brundtland hisobotida (1987) yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, xususan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash zarurligi e’tirof etilgan.

Yashil iqtisodiyotning asosiy nazariy tamoyillaridan biri – iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashdir. Ushbu tamoyil bo‘yicha iqtisodiy faoliyat ekologik cheklavlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. UNEP (2011) tomonidan nashr etilgan hisobotda yashil

iqtisodiyotning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka bo‘lgan ta’siri tahlil qilinib, qayta tiklanadigan energiya va ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish muhim ekani ta’kidlanadi. Bundan tashqari, ekologik zararlarni kamaytirish orqali aholining turmush darajasini yaxshilash va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish nazariyaning asosiy maqsadlaridan biridir.

Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishni amalga oshirish uchun davlat siyosati, biznes sektor va jamoatchilikning birgalikdagi harakatlarini talab etadi. Ushbu yondashuvda iqtisodiyotning "yashillashuvi" nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi, balki yangi ish o‘rinlari yaratish va innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirish imkoniyatlarini ochadi. OECD (2013) ma’lumotlariga ko‘ra, yashil iqtisodiyot tamoyillari bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga imkon beradi. Shu sababli, yashil iqtisodiyot nazariyasi nafaqat ekologik barqarorlikni, balki uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ham ta’minlaydigan yondashuv sifatida qaraladi.

Mahalliy iqtisodiyotga ta'sirning asosiy jihatlari

Yashil iqtisodiyotga o‘tish mahalliy iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Birinchi navbatda, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish mahalliy iqtisodiy faoliyatning yangi segmentlarini shakllantiradi. Quyosh, shamol, biogaz kabi energiya manbalariga asoslangan texnologiyalarni joriy etish natijasida yangi ish o‘rinlari yaratiladi va energiya importiga bo‘lgan qaramlik kamayadi. Masalan, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan "Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi" (2020) doirasida qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasini kengaytirish mahalliy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga olib keladi.

Yashil iqtisodiyot mahalliy ishlab chiqarish sohalarini ekologik mas’uliyat tamoyillari asosida qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Xususan, qishloq xo‘jaligida organik dehqonchilik va suv resurslarini tejamli boshqarish

usullarining joriy etilishi mahalliy iqtisodiyotning samaradorligini oshiradi. Nazarova va Saidov (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik innovatsiyalarni qo‘llash natijasida hosildorlikni oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirish mumkin. Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlash va ikkilamchi xomashyo ishlab chiqarishni kengaytirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi, balki atrof-muhitga bo‘lgan bosimni kamaytirishga ham xizmat qiladi.

Shaharsozlik va infratuzilma loyihamalarida yashil texnologiyalardan foydalanish mahalliy iqtisodiyotga salmoqli hissa qo‘shadi. Energiya samarador binolar, ekologik transport tizimlari va chiqindilarni boshqarish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlar mahalliy iqtisodiyotda innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. UNEP (2011) hisobotida qayd etilganidek, yashil texnologiyalarni joriy qilish nafaqat yashash muhitini yaxshilaydi, balki mahalliy darajada xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlanadiradi. Bu yondashuv, ayniqsa, shaharlarda yashovchi aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mahalliy tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi, bu esa iqtisodiyotning xilma-xilligini oshiradi.

Yashil iqtisodiyotning mahalliy darajadagi ijtimoiy ta’siri ham sezilarli ahamiyatga ega. Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan dasturlar va loyihamalar mahalliy jamoalarda ijtimoiy mas’uliyat va ekologik madaniyatni shakllantiradi. Shuningdek, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o‘sish nafaqat sanoat yoki infratuzilma sohalariga, balki qishloq hududlarining rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Bu esa mahalliy iqtisodiyotda barqaror rivojlanishni ta’minalash bilan birga, ijtimoiy tenglik va aholi farovonligini oshirishga imkon beradi. Shu sababli, yashil iqtisodiyotga o‘tish mahalliy iqtisodiyotga keng ko‘lamli ijobjiy ta’sir ko‘rsatib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

Amaliy misollar

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida global va mahalliy miqyosda turli muvaffaqiyatli amaliy misollar mavjud. Bunga, masalan, Germaniyaning yashil energiyaga o'tish tajribasini keltirish mumkin. Germaniya "Energiewende" dasturi orqali qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishda ulkan yutuqlarga erishgan. Ushbu dastur doirasida quyosh va shamol energiyasining ulushi sezilarli darajada oshdi, natijada mamlakatning energiya ta'minoti ekologik jihatdan toza va barqaror bo'ldi. Germaniya iqtisodiyoti yangi texnologiyalarni rivojlantirish va yashil ish o'rnlari yaratish orqali o'sishni davom ettirmoqda. Ushbu tajriba boshqa mamlakatlarga, jumladan, O'zbekistonga yashil iqtisodiyotga o'tishning samarali strategiyalarini ishlab chiqishda katta ilhom berishi mumkin.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha amalga oshirilgan amaliy misol sifatida, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan "Sog'lom muhit" dasturini ko'rsatish mumkin. O'zbekistonda quyosh energiyasini joriy etish bo'yicha bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda, masalan, Surxondaryo viloyatida joylashgan "Sherabad" quyosh stansiyasi. Bu loyiha qayta tiklanadigan energiya sohasida mamlakatda yangi ish o'rnlari yaratishga, atrof-muhitni himoya qilishga va energiya resurslarini tejashga xizmat qilmoqda. Bunda, ekologik jihatdan toza texnologiyalarni joriy etish, mahalliy ishlab chiqarish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishga ham yordam bermoqda. Bu kabi amaliy misollar, yashil iqtisodiyotning mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sirini yanada ravshanlashtiradi.

Muammolar

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida bir qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Birinchidan, yashil texnologiyalarni joriy qilishda mahalliy sanoatning tayyor emasligi va texnologik infrastrukturani yangilashdagi yuqori xarajatlar eng katta to'siqlardan biridir. Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish uchun zarur resurslar va malakali kadrlarni ta'minlashda muammolarga duch kelmoqda.

Ikkinchidan, qayta tiklanadigan energiya manbalarining yuqori boshlang‘ich investitsiyalari va texnik xizmat ko‘rsatish narxining yuqoriligi ko‘plab kompaniyalar va davlatlar uchun iqtisodiy jihatdan qiyinchilik tug‘diradi. Bu holat, ayniqsa, kichik va o‘rta biznes sektori uchun muammo bo‘lib, ular o‘z faoliyatini ekologik jihatdan toza texnologiyalar bilan yangilashda qiyinchiliklarga duch keladi.

Bundan tashqari, yashil iqtisodiyotga o‘tishning ijtimoiy ta’sirlari ham murakkab. Odamlar o‘zgarishlarga tayyor emasligi, ekologik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga ixtiyoriy ravishda qatnashish istagi pasayishi mumkin. Bu o‘zgarishlarni amalga oshirishda ma’lumot yetishmasligi, ekologik madaniyatning yetarlicha rivojlanmaganligi va mahalliy aholining yangi yondashuvlarga qarshi bo‘lishi ham o‘z o‘rnida muammo bo‘lishi mumkin. Shuningdek, qishloq hududlarida yashil iqtisodiyotning afzalliklari va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish uchun zarur infratuzilma va qo‘llab-quvvatlash tizimlari hali to‘liq shakllanmagan.

Xulosa

Yashil iqtisodiyotga o‘tish, global va mahalliy miqyosda barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Bu yondashuv, ekologik xavfsizlikni ta’minalash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Biroq, ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni bartaraf etish zarur. Mahalliy iqtisodiyotda yashil texnologiyalarni kengaytirish, ayniqsa, kichik va o‘rta bizneslar uchun qo‘llab-quvvatlashni talab etadi. Bunda davlat tomonidan innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, ekotexnologiyalarni joriy etishda soliq imtiyozlari va subsidiya siyosatlari muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotga o‘tish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatdan ham katta foyda keltiradi. Bunday o‘zgarishlar barqaror rivojlanishning yuqori samaradorligini ta’minalashga yordam beradi va kelajak avlodlar uchun barqaror yashash muhitini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pearce, D., Markandya, A., & Barbier, E. (1989). *Blueprint for a Green Economy*. Earthscan Publications.
2. Brundtland Commission. (1987). *Our Common Future*. Oxford University Press.
3. UNEP. (2011). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. United Nations Environment Programme.
4. OECD. (2013). *Green Growth Studies*. Organisation for Economic Co-operation and Development.
5. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). *Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.
6. Nazarova, G., & Saidov, A. (2022). *Yashil iqtisodiyot va mahalliy iqtisodiy rivojlanish*. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.
7. Schaltegger, S., & Wagner, M. (2017). *Sustainable Entrepreneurship and Innovation*. Springer.